



**O'ZBEKISTONNING IQTISODIY ISLOHOTLARI: MUSTAQILLIKNING
BOSHLANISHIDAN HOZIRGI KUNGACHA**

Aliqulova Nozima Abduvali qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqillikka erishish jarayonlari, mustaqillikdan keyingi davrdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy demokratik jarayonlari va so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, demokratiya, iqtisodiyot, ijtimoiy islohotlar, 3-renessans, strategiyalar, so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar, ta'lim, san'at-madaniyat, qonunchilik, xalqaro munosabatlar.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining huquqiy asoslari sifatida 1990-yil 20-iyunda Mustaqillik Deklaratsiyasi, 1991-yil 31-avgustda "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingani hamda 1991-yil 29-dekabr kuni umumxalq referendumini o'tkazilganini alohida ko'rsatib o'tish joizdir.

Yuqoridagi hujjatlarni mamlakatimizning o'sha sobiq Sovet ittifoqi tarkibida bo'lgan davrida o'zini mustaqil deb e'lon qilish yo'lida tashlangan dadil qadamlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Mazkur hujjatlar keyinroq mamlakatimizda yaratiladigan davlat boshqaruvi va inson huquqlari, mulkchilik, ichki va tashqi siyosat hamda boshqa masalalarni o'zida qamrab olgan.⁶

80 yillar oxiri 90 yillar boshlarida O'zbekistonda jamiyatning turli sohalarida mustaqillikka intilish harakatlari kuchayib bordi. 80 yillarning ikkinchi yarmidan mustaqillikni qo'lga kiritish shart-sharoitlari vujudga keldi. 1989 yil oktyabrda davlat tili to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi mustaqillik yo'lida muhim bosqich bo'ldi.⁷

1990 yili bahorida markazning qattiq qarshilishga qaramasdan sobiq Ittifoq Respublikalari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Bu o'zbek davlatchiligi va mustaqillikning printsiplari yangi bosqichi bo'ldi.

I.A.Karimov 1990 yil 24 martda O'zbekiston Oliy Kengashida O'zbekistonning birinchi Prezidenti qilib saylandi. 1990 yil 20 iyunda mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul

⁶ Islom Karimov "Yuksak Ma'naviyat-Yengilmas Kuch" TOSHKENT"MA'NAVIYAT"2010 11-bet.

⁷ Abduvali Berdiyev "O'zbekistonning eng yangi tarixi" TOSHKENT-2024"BOOKMANY PRINT" 4-bet.



qilinishi xalqning davlat mustaqilligiga intilishini huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan to'ldirdi va g'oyat katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston jamoat tashkilotlari va harakatlari orasida mustaqillik g'oyasi keng qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston Mustaqilligining birinchi navbatda kechiktirilmas ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy vazifalari keyinchalik O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida, Demokratik islohatlarni chuqurlashtirish vazifalari va boshqa asarlarida o'z rivojini topdi.⁸

O'zbekistonning yaqin o'tmishda va XX asrning so'nggi o'n yilida o'tgan yillari mustahkamlashning strategik to'plangan kitoblari xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. I.A.Karimovning O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, O'zbekiston XXI asrga intilmoqda asarlarida bayon etib beriladi.

Iqtisodiy islohotlar - xo'jalik yuritish tizimida, iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'llari va usullarida yirik qayta qurishlar, o'zgartirishlar samaradorligi past muayyan iqtisodiy tizimni takomillashtirish yoki eski tizimdan yangisiga o'tish maqsadlarida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tizimning samaradorligi qoniqarsiz bo'lgan, iqtisodiy tangliklar yuz bergan, iqtisodiyot kishilarning ehtiyojlarini yetarli qondirmagan hollarda, mamlakat o'z taraqqiyotida boshqa mamlakatlardan orqada qolgan sharoitlarda o'tkaziladi. I.i. larzalarsiz, aniq maqsadlar ko'zlangan holda, parlament qabul qilgan qonunlarga bi-noan va davlat rahbarligida o'tkaziladi. I.i. evolyusion rivojlanishni ta'minlaydi. 20-asr oxiri va 21-asr boshlaridagi I.i. umumbashariy bo'lib, de-yarli hamma mamlakatlarda o'tkazildi. Bozor iqtisodiyoti qaror topgan mamlakatlarda I.i. iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan bo'lib, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, iqtisodiyot sub'yektlari mustaqilligini kuchaytirish, monopoliyalar faoliyatini nazorat qilish, erkin narxlarga yo'l berish, xullas bozor mexanizmining to'laroq amal qilishiga sharoit yaratib berishga qaratildi. Yangidan mustaqil bo'lgan yosh mamlakatlarda (sobiqsotsialistik mamlakatlar va SSSR tarkibidagi respublikalar) I.i. 2 yo'nalishda bordi: 1) milliy mustaqillikni iqtisodiy jihatdan ta'minlashni ko'zlagan islohotlar; 2) rejali iqtisodiyotdan bozor tizimiga o'tishga qaratilgan, ya'ni bozor islohotlari yo'nalishlarida amalga oshirildi. Birinchi yo'nalish bo'yicha milliy pulni muomalaga kiritish, mustaqil bank, byudjet va soliq ti-zimlarini joriy etish, bojxona xizmatini tashkil qilish va milliy iqtisodiy chegaralarni o'rnatish, i.ch. tuzilmasini o'zgartirish kabilar amalga oshirildi. Ikkinchi yo'nalish bo'yicha mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, bozor in-fratuzilmasini yaratish, rejali davlat narxlaridan erkin bozor narxlarga o'tish, agrar sohadagi o'zgarishlar, tashki iqtisodiy faoliyatni bozor talablariga mos ravishda qayta qurish, monopoliyalarni cheklash, chetdan kapital kiritishni rag'batlantirish kabi choratadbirlar joriy etildi.⁹

⁸ Islom Karimov "Yuksak Ma'naviyat-Yengilmas⁸Kuch" TOSHKENT"MA'NAVIYAT"2010 11-bet

⁹ ."O'zbekiston tarixi solnomasi" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-y



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va davom etadi, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ta'minlaydi. I.i.ga umumiylik va milliylik xos. Ularning umumiyligi — I.i. yo'nalishlarining bir xil bo'lishi va yagona bozor tizimining qaror topishidir. Milliylik har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitini hisobga olish va shunga qarab islohot tamoyillarini qo'llashdan iborat. O'zbekistonda 1991—2002-yillar davomida amalga oshirilgan I.i. tanlangan milliy modelga binoan o'tka-zildi va bu jarayon davom etmoqda. – 2016-yilda Shavkat Mirziyoyev oliy lavozimni egallaganida O'zbekistonni taraqqiyotning tubdan yangi bosqichiga olib chiqish, qator murakkab va dolzarb muammolarni hal etish, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmini yaratish vazifalari turgan edi. O'zbekiston Prezidenti darhol davlat tarixidagi eng yirik islohotlarni boshlab yubordi, ularning samarasini bugun fuqarolar his qilayapti.¹⁰

Yangilangan Konstitutsiyani ishlab chiqishda O'zbekiston fuqarolarining misli ko'rilmagan faolligi, bir tomondan, davlat rahbari olib borayotgan demokratik islohotlar siyosatini keng qo'llab-quvvatlayotganidan, ikkinchi tomondan, Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadlariga erishish samaradorligidan chuqur va samimiy manfaatdorligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Prezidenti har doimgidek xalqining fikri va qo'llab-quvvatlashiga tayangan holda referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Islohotlarda konseptual g'oya – inson manfaatlari hamma narsadan ustun, “Inson sha'ni va qadr-qimmati yo'lida” tamoyili barcha islohotlarning bosh mezoni sifatida belgilandi– 2016-yilda Shavkat Mirziyoyev oliy lavozimni egallaganida O'zbekistonni taraqqiyotning tubdan yangi bosqichiga olib chiqish, qator murakkab va dolzarb muammolarni hal etish, hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmini yaratish vazifalari turgan edi. O'zbekiston Prezidenti darhol davlat tarixidagi eng yirik islohotlarni boshlab yubordi, ularning samarasini bugun fuqarolar his qilayapti.

Yangilangan Konstitutsiyani ishlab chiqishda O'zbekiston fuqarolarining misli ko'rilmagan faolligi, bir tomondan, davlat rahbari olib borayotgan demokratik islohotlar siyosatini keng qo'llab-quvvatlayotganidan, ikkinchi tomondan, Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadlariga erishish samaradorligidan chuqur va samimiy manfaatdorligidan dalolat beradi.¹¹

O'zbekiston Prezidenti har doimgidek xalqining fikri va qo'llab-quvvatlashiga tayangan holda referendum o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Islohotlarda konseptual g'oya – inson manfaatlari hamma narsadan ustun, “Inson sha'ni va qadr-qimmati yo'lida” tamoyili barcha islohotlarning bosh mezoni sifatida belgilandi..Hozirgi kunda yurtimizda turli yo'nalishlar bo'yicha jadal islohotlar o'tkazilmoqda,bularga misol tariqasida,sport,madaniyat,ilmiy

¹⁰ Karimov I.A,”O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” ,T..1995.Alisher Vahobov.

¹¹ ”O'zbekistonning yangitarixi” 2-kitob “SHARQ” TOSHKENT-2000-Y



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



sohalardagi kabi islohotlar va bu islohotlarning samarasi sifatida esa so`nggi yillardagi yutuqlarimizni e`tirof etishimiz mumkin.

Xulosa o`rnida yurtimizning tarixini unutmasligimiz va doim tariximiz bilan fahrlangan holda kelajagimiz rivoji uchun yurtboshimiz tomonidan berilgan imkoniyatlardan to`g`ri foydalanishimiz kerak. Zero, so`nggi yillardagi ulkan imkoniyatlar natijasini ko`rib turibmiz, ya`ni dunyo mamlakatlari bizni turli sohalardagi yutuqlarimiz bilan tanimoqdalar. Aynan, iqtisodiyot, tashqi siyosat sohalari bo`yicha ham katta va muhim islohotlar o`tkazilmoqda, bu islohotlar sabab xalqaro munosabatlarimiz ham yuksalmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov “Yuksak Ma`naviyat-Yengilmas Kuch”. TOSHKENT”MA`NAVIYAT”2010 11-bet.
2. Abduvali Berdiyev “O`zbekistonning eng yangi tarixi”. TOSHKENT-2024”BOOKMANY PRINT” 4-bet.
3. ”O`zbekiston tarixi solnomasi” O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-y
4. ”O`zbekistonning yangi tarixi” 2-kitob “SHARQ”. TOSHKENT-2000-Y
5. Karimov I.A., ”O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida” ,T..1995. Alisher Vahobov.